

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**TARJIMONLIK FAKULTETI**

**TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI**

**Kurs ishi**

**MAVZU: MODAL FE`LLAR VA ULARNING ISHLATILISHI**

**Talaba: Rustamova Sitora.**

**Ilmiy rahbar: Abduraximova F.**



**SAMARQAND 2015**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I. BOB MODAL FE'LLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.....</b>	<b>5</b>
<b>1.1. Modal fe'llarning qulayligi va gapda ishlatilishi.....</b>	<b>5</b>
<b>1.2. Umumiy ishlatiladigan “Can, Could, May, Might” haqida.....</b>	<b>9</b>
<b>I. Bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>17</b>
<b>II. BOB MODAL FE'LLARNING TURLARI.....</b>	<b>18</b>
<b>2.1. “Need, Ought to” modal fe'llari.....</b>	<b>18</b>
<b>2.2. “Should, Must, Have to” modal fe'llari.....</b>	<b>19</b>
<b>II Bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>22</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>24</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>26</b>

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, hayotimizning har jabhasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ta'lim sohasiga ham katta e'tibor qaratila boshlandi, istiqlol yillari davomida ta'lim to'laligicha isloh qilindi. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida mamlakatimizda chet tillarni o'qitishni takomillashtirish to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Prezidentimiz I.A.Karimov ko'p marta ta'kidlaganidek, bizning avlodlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lmog'i lozim. O'zbekiston dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan do'stona aloqalarni o'rnatdi, respublikamiz mustaqillikning ilk yillaridan bir qator xorijiy davlatlar bilan teng, ta'lim sohasida va iqtisodiy hamkorlik olib bormoqda, bu esa o'z-o'zidan xorijiy tilda gaplasha olish ehtiyojini tug'diradi. XXI asrda inson o'zini zamonaviy texnologiyalarni va ingliz tilini bilmasdan tasavvur qilishi juda murakkab, chunki ko'plab internet saytlari ingliz tilida, kompyuterlar hayotimizning har jabhasiga kirib kelgan. Hozirgi paytda ingliz tilini o'rganish, bilish va xorij madaniyatidan xabarbor bo'lish juda muhim masala sanaladi. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'tmishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integrasiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, yurtboshimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda til o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida ingliz tilini olishimiz mumkin. Mamlakatimizning turli hududlarida ingliz tilida bemalol so'zlasha oladigan yoshlarning borligi va safi kengayayotganligi kishini beixtiyor quvontiradi. Yuqoridagilarga nazar soladigan bo'lsak yurtimiz taraqqiyotida tilning nechog'lik ahamiyatli ekanligiga yana bir karra amin bo'lamiz. Bugun mamlakatimizda istiqlol bergan erkinlik sharofati bilan barcha sohalarda yangilikka intilish ko'lami ortib bormoqda, jumladan chet tillarini o'rgatilishiga alohida to'xtalib o'tish joizdir.

**Mavzuning dolzarbligi.** Mazkur ilmiy ishning dolzarbligi, ularning o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri tarjimasini mavjud emas ya'ni o'zbek tilida modal fe'llar mavjud bo'lmay modallik ma'nosini o'zbek tilida turli morfologik va sintaktik usullar ya'ni ko'makchi fe'llar, modal so'zlar va affikslar yordamida ifodalanadi. Ular mustaqil fe'llar singari ish-harakatni to'g'ridan to'g'ri ifodalamaydi. Bu fe'llar gapda so'zlovchining voqea-hodisaga nisbatan subyektiv monosabatini ifodalab keladi. Shu sabab, uning o'zbek tilida tarjima qilinayotganda turli qiyinchiliklarga duch kelinishi va usullardan foydalanishda chalkashliklarga yo'l qo'yilmoqda. Ingliz tilidagi modal fe'llarning o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda o'z ma'nosida emas balki boshqa ma'noda ba'zan berilgani haqida yoritib berildi.

Ilmiy ishning maqsadi. Hozirgi zamon ingliz tilidagi modal fe'llar nazariy va amaliy jihatdan, shuningdek sintaktik-semantik jihatdan har tomonlama o'rganib chiqishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilar vazifalarni hal qilishni o'z oldimizga qo'ydik:

1. Hozirgi zamon ingliz tilida "can" va "to able to" borasidagi ishlarni ko'rib chiqish va ularga munosabat bildirish;

2. Mavjud nuqtai-nazarlarga ijodiy yondoshib, ularning nazariy va amaliy ma'nolarini o'rganish;

3. "to have to" larni "must" modal fe'li mustaqil va yordamchi fe'llar bilan qiyoslab o'rganish asosida ularning struktura bo'yicha tavsiyalar berish;

4. Gap qurilishida modal fe'llarning roli va o'rnini aniqlash;

5. Zamonaviy ingliz va Amerikalik yozuvchilarning badiiy asarlaridan olingan misollardan foydalanib modal fe'llarning sintaktik va semantic xususiyatlarini atroflicha o'rganib chiqish.

**Ilmiy ishning metodologik asosi va tadqiq usuli.** Ilmiy ishning metodologik asosi shundan iboratki, bu yerda modal fe'llarning bir-biri bilan qiyoslab, taqqoslab o'rganish bo'lsa, tadqiq usuli hozirgi zamonaviy ingliz tilida va asosan Amerika ingliz tilida modal fe'llarning atroflicha qisqartirishlar orqali ishlatilayotganini bayon qilishdir. Tahlil qilish orqali uning turli leksik ma'nolarini aniqlash va bu oborotlar qatnashgan gaplarni tarjima qilganda ularning o'zbek tilidagi muqobil variantlarini topish tadqiqotning ilmiyligidir.

**Ilmiy ishning amaliy ahamiyati.** Mazkur ilmiy ishning amaliy ahamiyati Ingliz tilining nazariy va amaliy grammatikasi fanlari uchun berilgan materiallar ilmiy qiymatga ega bo'lib, ulardan modal fe'llarning turli yo'nalishda misol uchun: she'r, hikoya, asar, informativ mavzusida ilmiy maqolalar yozishda, ingliz tili grammatikasidan shu mavzuda amaliy mashg'ulotlar o'tishda foydalanish mumkin.

**Ilmiy ishning yangiligi.** Bu ilmiy ishning yangiligi shundaki unda nafaqat ehtimollik, zaruriyatni balki zamonaviy ingliz tilida ayniqsa og'zaki tilda hozirgi Amerika Ingliz tilida modal fe'llarning qisqartmalar yoki lahjalarga moslashtirib aytilishini yoritib berildi. Modal fe'llarning har birining o'zida tub ma'no yotib qaysi birini qay paytda qo'llay bilish ularni o'rganish, bir-biri bilan joyini almashtirmaslik haqida ham keng yoritilib bergan.

**Ilmiy ishning obykti.** Modal fe'llarning ekvivalentlari o'rtasida alohida o'rin tutadigan "Can", "Could", "To able to", "Need", "May", "Might", "Must", "Should", "to have to" tadqiqotning ob'jektidir.

**Ishning tuzilishi.** Kurs ishi Kirish, 2 bob, Xulosa, Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## I BOB

### MODAL FE'LLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

#### 1.1. Modal fe'llarning qulayligi va ularning gapda ishlatilishi

Kaushanskaya quyidagicha to'xtalib o'tadi: "Modal verbs are used to show the speaker's attitude toward the action or state indicated by the infinitive, I, e, they show that the action indicated by the infinitive is considered as possible, impossible, probable, improbable, obligatory, necessary, advisable, doubtful or uncertain, etc. The modal verbs are: can (could), may (might), must, should, ought, shall, will, would, need, dare. The modal expressions to be+infinitive and to have+infinitive also belong here". "Modal verbs are called defective because all of them (except "dare" and need) lack verbals and analytical forms" (i.e. compound tenses, analytical forms of the subjunctive Mood, the Passive Voice)" [13, B.118].

J. Bo'ronov o'zining "Ingliz tili grammatikasi" darslik kitobida modal fe'llarning qo'yidagi xususiyatlariga ham alohida to'xtalib o'tadi: uning fikricha modal fe'llardan sifatdosh formasini yasab bo'lmaydi. Suffiks yoki prefikslar yordamida modal fe'llardan yangi fe'llar yasalmaydi, chunki modal fe'llarning o'zlari so'z yasash usuli yordamida boshqa so'zlardan yasalgan emas. Modal fe'llar to'yuklamasini olmasligining sababi, preterit-prezent fe'llarning infinitiv formasidan emas, balki hozirgi zamon formasidan yasaladi.

Masalan: Qadimgi ingliz tilida "can, may, shall" modal fe'llarining infinitiv formasi "*cannat*", "*magan*", "*sculan*", *hozirgi zamon formasi esa "can", "mag", "sceal"* bo'lgan [7, B.138-139].

Qadimgi Ingliz tilida bu fe'llarning birinchi va ikkinchi shaxs birlik formalari aynan bit xil bo'lganligi uchun ham hamma shaxslarda bir forma ishlatilib, faqat ikkinchi shaxs birlik formasigina ulardan farq qilgan. Masalan; I va III shaxs birlikda can II shaxs birlikda "canst" XVI asrdan boshlab ikkinchi shaxs birlik formasi standart adabiy ingliz tilida uchala shaxsda ham bir hil forma qo'llaniladi. Qadimgi ingliz tilida I va II shaxs birlik formasi standart adabiy ingliz tilida (standart English) kamdan-kam ishlatila borib, oxiri umuman ishlatilmay qolganligi sababli hozirgi Ingliz tilida I va II shaxs birlik formalari kuchli fe'llarning (strong verbs) o'tgan zamon indikativ formalari o'xshashligi sabab bo'lgan.

"Can", "may" modal fe'llari anglatgan ma'nolarni "*to have to*", "*to have*", "*got to*", "*to be obliged to*", "*to be to*" yordamida ham berish mumkin.

Yuqorida keltirilgan infinitivli formalar modal fe'llarning o'ziga xos sinonimlari bo'lib, ularni modal fe'llarning ekvivalentlari deb yuritiladi. "Can" modal fe'li anglatgan ma'noni ayrim hollarda "to be able (to)" yordamida ham berish mumkin, "May" modal fe'lining esa "to be allowed to" kabi ekvivalenti bor. "Must" modal fe'lining esa "to have to" (have got to) yoki "to be to" kabi ekvivalentlari bor. Bu ekvivalent fe'llar grammatik kategoriyalarning deyarli hammasida qo'llanilsa-da, leksik va stilistik jihatdan ko'p hollarda chegaralangan bo'ladi.

N. Kachalova modal fe'llarga "*can*" (*could*), *may* (*might*), "*must*", "*ought*", "*need*" kabi modal fe'llarni kiritadi.

Anglatgan ma'nosiga ko'ra majburiylik, mumkinlik, zarurlik, ishonch, hohish yoki ruxsat, taxmin, faraz qilish, qo'lidan kelishlik va shunga o'xshash boshqa ma'nolarni ifodalovchi fe'llar modal fe'llar deyiladi. Modal fe'llar harakatni ko'rsatmasligi tufayli boshqa fe'llardan semantic jihatdan farq qiladi. Modal fe'llar doimo infinitive shaklidagi asosiy fe'llar bilan birga ishlatilib asosiy fe'llarga modallik ma'nosini qo'shadi [14, B.220].

Gordon modal fe'llarga quyidagicha ta'rif beradi: "Modal verbs are defective verbs since they each lack many forms a modal compound predicate. They lack –s in the third person singular in the Present tense and have no verbals, so they have no analytical forms, some of them lack the form of the Past tense"[9, B.79].

Modal fe'llarning asosiy grammatik tavsifi haqida J. Bo'ronov quyidagicha to'xtalib o'tadi:

**1) Modal fe'llar faqat infinitive formasidagi fe'llar bilan ishlatiladi.**

**Modal fe'li bilan ishlatiladigan infinitive har xil bo'lishi mumkin:**

a) perfekt bo'lmagan infinitiv bilan:

He can speak a little French.

U bir oz fransuz tilida gapira oladi.

All children must go to school at the age of 7.

Barcha bolalar 7 yoshidan maktabga borishlari shart.

It can be true.

Bu haqiqat bo'lishi mumkin.

b) perfektli infinitiv bilan:

You could have seen the house from, there if it had not been so dark.

Agar bunchalik qorong'u bo'lmaganida edi, siz bu erdan uyni ko'ra olgan bo'lar edingiz.

I oughtn't to have told you.

Men sizga buni aytmasligim kerak edi.

You should have done it before.

Siz buni avval qilishingiz lozim edi.

He must have been ill.

U kasal bo'lgan bo'lsa kerak.

c) davomli aspektidagi infinitiv bilan:

She oughtn't to be thinking about spending money. (Th. Dreiser).

U sarflayotgan pullari haqida o'ylamasa kerak.

She couldn't be telling lies.

U yolg'on gapira olmaydi.

The book is not on the shelf. Jane must be reading it.

Kitob tokchada emas. Jane uni o'qiyotgan bo'lsa kerak.

d) davomli aspektidagi perfekt infinitiv:

Could he have been at home all this time?

U butun shu vaqt mobaynida uyda bo'lganmikan?

She couldn't have been waiting for us so long.

U bizni buncha uzoq vaqt mobaynida kuta olmagan bo'lardi.

It must have been raining all the night.

Tun bo'yi yomg'ir yoqqan bo'lsa kerak.

e) passiv (majhul) nisbatdagi infinitiv bilan:

All this must be changed. (K. Aldington).

Buni hammasini o'zgartirish kerak.

The work must be done at once.

Bu ishni zudlik bilan bajarish lozim.

f) passiv nisbatdagi perfekt infinitiv bilan:

It might have been considered beautiful at one time.

Bir vaqtning o'zida uni chiroyli deb hisoblash mumkin edi.

The book could have been read in a short time.

Kitobni qisqa vaqt ichida o'qib chiqilsa bo'lar edi.

2) Modal fe'llardan keyin kelgan asosiy fe'l "to" yuklamasiz ishlatiladi, ya'ni ular hamisha predikativ formada bo'ladi. Ammo modal fe'llarning ekvivalentlari bundan mustasinodir.

I cannot see what you mean.

Siz nima dimoqchiligingizni tushuna olmayapman.

You have to change your mind.

Fikringizni o'zgartirishingizga to'g'ri keladi.

3) Ikkinchi shaxs birlikda "-s" qo'shimchasi ishlatilmaydi.

You must go out in the fresh air.

Siz toza havoga chiqishingiz shart.

You can get a nice room here and some clothes and then you can do something.

(Th. Dreiser).

Siz bu erda yaxshi uy, keyim-kechak va biror ish bilan shug'ullanishingiz mumkin.

4) Modal fe'llarning ayrimlari ikkita zamon formasida: can-could, may-might, will-would, dare-dared, shall-should, ayrimlari esa faqat bitta o'zgarma formada keladi: must, ought, need.

Clyde could scarcely prevent her voice from trembling (Th. Dreiser).

Klaid zo'rg'a ovozdagi titroqni bosa oldi.

I can imagine how angry he is.

Uni qanchalik darg'azabligini tasavvur qilayapman [7, B.128].

L. S. Barxudarov, D. A. Shtelinglar o'ziga xos semantikaga va grammatik xususiyatlarga ega bo'lgan bir guruh fe'llarni modal fe'llarga kiritadi. Modal fe'llarning asosiy guruhini can (could), may (might), must, shall (should), ought, will (would) kabi modal fe'llar tashkil etadi.

L. Barxudarov o'zining "Грамматика английского языка" kitobida modal fe'llarning ish-harakatni emas, balki so'zlovchining ish-harakatga bo'lgan hoxishini, imkoniyatini, zaruriyatini bildiradi [5, B.309].

Shuningdek, modal fe'llar turli xil emotsiyalarni, ya'ni ajablanishni, shubhani va shu kabilarni bildiradi.

Gap strukturasiidagi o'rniga ko'ra modal fe'llar yordamchi so'zlar hisoblanadi. Modal fe'llar ish-harakatni emas, balki modallik munosabatini anglatgani uchun ham ular gapning mustaqil bo'lagi sifatida ishlatilmaydi. Modal fe'llar har doim infinitive bilan birikib, murakkab modal kesim bo'lib keladi.

1. You must not allow your father to take such a step. You must prevent it (Ch. Dickens).

Siz otangizning bunday yo'l tutishiga yo'l qo'ymasligingiz kerak.

Siz buni taqiqlashingiz kerak.

2. She cannot deceive me. Her name cannot be Doolittle. (B. Shaw)

U meni alday olmaydi. Uning ishi Dylittle bo'lishi mumkin emas.

*Must, should, ought* kabi modal fe'llar o'zgarmas formaga ega bo'lsa, ikki xil formaga ega, aniq mayl hozirgi zamonda *can, may, will* bo'lsa, aniq mayl o'tgan zamonda *could, might, would*.

Shart-istak maylda: *could, might, would*.

M. A. Belyayeva modal fe'llarga qo'yidagicha ta'rif beradi:

*“Модальные глаголы-это такие глаголы, которые выражают не действие или состояние, а отношение лица, обозначенного местоимением или существительным, несущем в предложении функцию подлижающего, к действию или состоянию, выраженному инфинитивом. Модальный глагол в сочетании с инфинитивом образует в предложении составное глагольное сказуемое. Модальные глаголы выражают значение возможности, необходимости, вероятности, желательности и т. п.”*

Shuningdek, Belyayeva o'zining “Ingliz tili grammatikasi” kitobida **can, may, must, ought, need** kabi fe'llarni modal fe'llarga kiritadi [6, B.139].

Bizga ma'lumki modal fe'llardan keyin infinitiv “to” yuklamasini olmaydi. “Ought” modal fe'llidan keyin esa “to” yuklamasi albatta keladi.

Modal fe'llar boshqa fe'llardan o'zining to'rt formasiga ega emasligidan ham farqlanadi. “Can” va “may” modal fe'llari ikki zamon formasiga, ya'ni hozirgi va o'tgan zamon formasiga ega bo'lsa, “must”, “ought”, “need” kabi modal fe'llar faqat hozirgi zamon formasiga ega.

Present Indefinite: *can, may, must, ought*;

Past Indefinite: *could, might*;

Modal fe'llarning shaxssiz shakllarga infinitiv, gerundiy va sifatdosh shakllariga ega emas. Modal fe'llarning so'roq va inkor shakllari “to do” yordamchi fe'llarisiz yasaladi. So'roq formalarda modal fe'llar egadan oldinga o'tadi.

Masalan: Can you do it?

Must you do it?

May you do it?

Need he do it?

Ought she do it?

Modal fe'lli inkor gaplarda “not” inkor yuklamasi modal fe'llardan keyin keladi. “Can” modal fe'lli inkor gaplarda “not” inkor yuklamasi “can” modal fe'li bilan birga yoziladi: “cannot” kabi.

He cannot do it.

You may not smoke here.

U buni qila olmaydi.

Bu yerda chikilmaydi.

**Modal fe'llar quyidagi inkor yuklamali qisqartmalarga ega:**

Can't            mayn't

Couldn't        mightn't

Needn't        mustn't

## 1.2. UMUMIY ISHLATILADIGAN “CAN, COULD, MAY, MIGHT HAQIDA

### “Can” modal fe’li haqida

**Can-** modal fe’li Simple Infinitive bilan kelib ish-harakatni bajarish imkoniyatini, mumkinligini, qobiliyatini, ifodalaydi, hozirgi va kelasi zamon.

I can do it now

Men buni hozir qila olaman.

I can speak English

Men inglizcha gapira olaman.

He can finish his work next week

U ishini kelasi hafta tugata oladi.

This work can be done at once

Bu ishni birdan qilsa bo’ladi.

Can o’rnida “be able to” ni ishlatrsa ham bo’ladi. **Be able to** hozirgi, kelasi va o’tgan zamonlarda ishlatiladi.

I can do it

Men buni qila olaman.

I could do it

Men buni qila oldim.

I shall be able to do it

Men buni qilishga qodir bo’laman.

Can fe’li **Perfect Infinitiv** bilan kelib (can+have+P.P) bo’lishsiz va so’roq gaplarda ishlatiladi va suhbatdosh gapirayotgan, haqiqatda sodir bo’lga ish-harakatning bo’lishi mumkin emasligini ifodalaydi:

He cannot have done it

U buni qilgan bo’lishi mumkin emas.

He cannot have said it

Buni aytmagan bo’lishi kerak.

### “Could” modal fe’li haqida.

1. **Could+V** ish harakatni o’tgan zamonda sodir etish imkoniyatini, qobiliyatini ifodalaydi. **Could** o’rnida **was (were) able to** ham ishlatilishi mumkin:

He could (was able to) swim very well when he was young.

U yoshligida juda yaxshi suza olardi.

He could (was able to) read French

U Fransuzchani o’qiy olardi.

He could (was able to) speak English when he was a boy.

U bolaligida Inglizcha gapira olardi.

2. Amalda (haqiqatda) sodir bo’lgan ish- harakat to’g’risida gap ketganda faqat **was (were) able to** ishlatiladi:

We were able to discharge the steamer in twenty-four hours.

Biz yigirma to’rt soat ichida paroxodning yukini tushira oldik.

He was able to translate the article without a dictionary.

U maqolani lyg’atsiz tarjima qila oldi.

3. Bosh gapni o’tgan zamonda bo’lgan o’zlashtirma gapning ergash gapida **could** ishlatiladi:

a) Can+V ishlatilgan ko’chirma gapni o’zlashtirma gapga aylantirganimizda, o’zlashtirma gapda **Could+V** ishlatiladi:

He said that he could speak German

U nemischa gapira olishini aytdi.

He said that he could finish his work in time.

U ishini vaqtida tugata olishini aytdi.

b) **Can+have+P.P.** ishlatilgan ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganimizda, o'zlashtirma gapda could+have+P.P. ishlatiladi:

I said that he couldn't do it Men u bunday qila olmasligini aytdim.

4. Hozirgi zamon noreal shart gapli qo'shma gapning bosh gapida could+V, o'tgan zamondagi noreal shart gapli qo'shma gapning bosh gapida could+have+P.P. ishlatiladi:

If he had a good dictionary, he could translate the article

Agar uning yaxshi lug'ati bo'lganda, u maqolani tarjima qila olardi.

If he had tried, he could have done it.

Agar u harakat qilganda, buni qila olgan bo'lardi.

### Amerika Ingliz tilida Modal fe'llarning turli qisqartmalarda ishlatilishi.

1.	I have got to go	I've gotta to
2.	I have got a book	I've gotta book
3.	Do you want to dance?	Wanna dance?
4.	Do you want a banana?	Wanna banana?
5.	Let me in.	Lemmi in.
6.	Let me go.	Lemmi go.
7.	I'll let you know.	I'll letcha know.
8.	Did you do it?	Dija do it?
9.	Not yet.	Na chet.
10.	I'll meet you.	I'll meeche layder.
11.	What do you think?	Whaddyu think?
12.	What did you do with it?	Whajoo do with it?
13.	How did you like it?	Howja like it?
14.	When did you get it?	Whenju geddit?
15.	Why did you take it?	Whyju tay kit?
16.	Can you bring it?	Canna yu brin git?
17.	Can he go to concert?	Canna he go concert?
18.	May they take copy?	My thiy tay copy?
19.	Could I go?	Coury go?
20.	May she eat?	Mech she eat?
21.	Must he write?	Muss he write?
22.	I can fly.	I canna fly.
23.	They could get up early.	They cour geddap early.
24.	He should stay at the hotel.	He shour stayet the hotel.
25.	I can love.	I canna love.
26.	They may go.	They mech go.
27.	You could hurry to party. Couldn't you?	You cour hurry to party. Couldn't yu?
28.	You ought to begin.	Yu outtu begin.
29.	They ought to come today.	They outtu come today.
30.	I have to learn Korean language.	I've gottalearn Korean language.

## “MAY” MODAL FE’LI HAQIDA.

### **May+V ruxsatni ifodalaydi.**

You may take my dictionary

Siz mening lug’atimni olishingiz mumkin.

May I come in?

Kirsam maylimi?

**May** ruxsatni ifodalash uchun faqat hozirgi zamonda ishlatiladi, o’tgan va boshqa zamonlarda **might** emas **allow** fe’lining majhul nisbati ishlatiladi:

He was allowed to go there

Unga u yerga borishga ruxsat berishdi.

He has been allowed to go there

Unga u yerga borishga ruxsat berishgandi.

May gapiruvchi to’g’riligiga ishonmagan taxminni ifodalaydi.

May+V hozirgi kelasi zamondagi taxminni ifodalashda ishlatiladi:

He may know her address

Balki u uning adresini bilar.

He may come to London in the summer. U Londonga yozda kelishi mumkin.

**May+be+Ving** suhbat vaqtida davom etayotgan taxminni ifodalaydi:

Where is he?

U qayerda?

He maybe walking in the garden. U bog’da sayr qilayotgan bo’lishi mumkin.

**May** bo’lishsiz gaplarda ham ishlatilishi mumkin:

He may not know her address

U uning manzilini bilmasligi mumkin.

You may not find him there

Siz uni u yerda topa olmasligingiz mumkin.

May+have+P.P. o’tgan zamondagi taxminni ifodalaydi.

He may have left London

U Londondan jo’nab ketgan bo’lishi mumkin.

He may have lost her address U uning manzilini yo’qotgan bo’lishi mumkin.

**May+V** maqsad ergash gaplarda ishlatiladi:

I shall give him my exercises so that he may correct them.

Men unga tekshirish uchun mashqlarimni beraman.

Ko’chirma gapdagi may+V bosh gapi o’tgan zamonda bo’lgan o’zlashtirma gapda **Might+V** bo’lib keladi:

U Tom uning lug’atini olishi mumkinligini aytdi.

## “MIGHT” MODAL FE’LI HAQIDA.

**Might** bosh gapi o’tgan zamonda bo’lgan o’zlashtirma gapda taxminni ifodalaydi: Ko’chirma gapda **may+V** ishlatilgan bo’lsa, o’zlashtirma gapda **might+V** ishlatiladi:

He said that Nancy might know her address.

U uning manzilini Nensi bilishi mumkinligini aytdi.

Ko’chirma gapda **May+have+P.P.** ishlatilgan bo’lsa, o’zlashtirma gapda **might+V** ishlatiladi:

He said that Nancy might have known their address.

U ularning manzilini Nensi bilishi mumkinligini aytdi.

1. Bosh gapi o’tgan zamonda bo’lgan qo’shma gapdagi maqsad ergash gaplardagi **might+V** ishlatiladi:

I gave him my exercises so that, he might correct them.

U tekshirsin deb men mashqlarimni unga berdim.

2. Hozirgi zamonda bo’lgan noreal shart gapli qo’shma gaplarning bosh gapda **might+V** ishlatiladi:

If you tried, you might get the book.

Agar harakat qilganingizda, kitobni olar edingiz.

If she called at his office at five o'clock, she might find him there.

3. O'tgan zamondagi noreal shart ergash gapli qo'shma gapning bosh gapida **might+have+P.P.** ishlatiladi:

If she had called at his office at five o'clock yesterday, she **might have found** him there.

Agar u shu yerda bo'lganda edi u bizga yordam bergan bo'lishi mumkin edi. Bundan tashqari modal fe'lidan foydalangan qisqacha Ingliz tilidagi hikoyani keltirib bu hikoyada foydalanilgan modal fe'llarning ma'nosini yoritdik.

Quyida berilgan fe'llar "Modal fe'llar" deb ataladi. Ular yordamchi fe'llar bo'lib, ish-harakatning bajarilish imkoniyati, qobiliyati, extimolligi, zaruratini ifodalaydi. Ko'pgini modal fe'llar birdan ortiq ma'noni anglatadi.

**Can, could, may, might, should, had better, must, will, va would** fe'lning oddiy shaklidan oldin keladi.

**Ulardan keyin to kelmaydi.**

Noto'g'ri: He can to speak English

**Yetakchi fe'l -s qo'shimchasini olmaydi.**

Noto'g'ri: He can speaks English

**Yetakchi fe'lning o'tgan zamon shakli ishlatilmaydi.**

Noto'g'ri: He can spoke English

**Yetakchi fe'l -ing shaklini olmaydi.**

Noto'g'ri: He can speaking English

**Can va could qobiliyatni ifodalashda ishlatiladi.**

**Can hozirgi va kelasi zamonda qobiliyatni ifodalaydi.** Bobur can play the piano.

Bobur pianino chala oladi.

Bobur can speak English.

Bobur inglizcha gapira oladi.

**Can ning inkor shakli can't, cannot yoki can not deb yozilishi mumkin.** I can't understand that sentence

Men o'sha gapni tushuna olmayapman.

**Can ning o'tgan zamon shakli could**

Our son *could* walk when he was one year old.

Bizning o'g'limiz bir yoshligida yura olardi.

**Imkoniyatni ifodalash: may va might**

May va might hozirgi yoki kelasi zamondagi imkoniyatni ifodalaydi. Ularning ma'nosi bir xil

It may rain tomorrow                      Ertaga yomg'ir yog'ishi mumkin.

It might rain tomorrow                      Ertaga yomg'ir yog'ishi mumkin.

Bo'lishsiz shakli: **may not va might not**

It may not rain tomorrow                      Ertaga yomg'ir yog'masligi mumkin

It might not rain tomorrow                      Ertaga yomg'ir yog'masligi mumkin

**Maslaxatni ifodalash: should va ought to**

Should va ought to bir ma'noga ega. Ular "Bu yaxshi fikr. Bu yaxshi maslaxat" degan ma'noni anglatadi.

My clothes are dirty. I should wash them.

Mening kiyimlarim kir, ularni yuvsam yaxshi bo'lardi.

My clothes are dirty I ought to wash them.

Mening kiyimlarim kir, ularni yuvsam yaxshi bo`lardi.

Should+fe`lning oddiy shakli

ought+to + fe`lning oddiy shakli

Noto`g`ri: I should to wash them

Noto`g`ri: I ought washing them.

### Must

Must yozma nutqda ishlatiladi. U odatda jiddiy so`z

Mustning ma`nosi "Biror ishni qilish kerak ya`ni u bunga majbur"

I must go to my work

Men ishingga borish kerak

**Taqiqlashni ifodalash: must not**

**Must not taqiqni ifodalaydi (Buni qilma!)**

Children, you must not play with matches!

Bolalar, sizlar gugurt bilan o`ynamasliklaring kerak!

**Mantiqiy xulosalar: must**

Quyidagi gapda so`zlovchi **B** mantiqiy xulosa chiqaryapti. U o`z xulosasida Nozimaning esnayotganiga asoslanyapti. Uning mantiqiy xulosasi: Nozima uyqusirayapti. U mantiqiy xulosasini ifodalash uchun **must to** dan foydalanyapti.

A: Nozima is yawning.

A: Nozima esnayapti.

B: She must be sleepy.

B: U uyqusirayotgan bo`lsa kerak.

Modallar va ularning muqobillari

Ba`zi modallar hamma zamonlarda ham ishlatilmaydi. Shuning uchun ularning muqobillarini bilib olishimiz lozim.

**Modal fe`llar**

must

must not

can

may

need

need not

**Muqobillar**

to have to

not to be allowed to

to be able to

to be allowed to

to have to

not to have to

### Modal verbs story

I **want to** describe a funny story about pouring rains in Moscow. I was on my way back home, when I noted that it was going to rain hard. In fact, it rained already, and every second the rain was getting harder.

I **could** wait near the Metro station - at least I would have a shelter there. Instead, I got the wrong bus - I **have to** walk about 10 minutes from the nearest stop of that bus to my home. Now it was raining very-very hard. Umbrellas were no good. In the minute you **ought to** be wet from head to feet - because of rain and wind.

I got out of the bus - it was a bad situation. Now the water on the ground was up to my feet. I **should** wait at the bus stop - it was probably the last chance to have at least some parts of my shirt dry. But always during the rain you had a strange force that makes you hurry home. I opened my umbrella and walked hurriedly.

There was no use of umbrella. I got wet in first 30 seconds. The water ran angrily along the pavement, so my feet were covered by water very quickly. Now I had a feeling that there is no place that I **had to** save (or could save) from water.

But something made me start. It was thunder and lightning. So I ran home as fast as I **could**. It was one of the most exciting impressions of that summer some years ago...[2].

Bu yerda birinchi gapdagi “**want to**” xoxlamoq ma’nosida kelgan. Ya’ni xoxish istak manosini bildirayapti. Ikkinchi gapdagi **could** esa uta olmoq ma’nosida ichki qobiliyatdan kelib chiqyapti. “**Have to**” modal fe’li esa zaruriyat yana uyigacha 10 minutgacha bo’lishi kerak. “**Ought to**” esa bo’lishi mumkin degan ma’noda kelgan. “**Should**” esa zarur degan ma’noda ammo judayam qat’iy ohangda emas chunki yomg’ir yog’ayotganligi tufayli bekatda turish kerakligini anglatmoqda. Ammo istasa ketishi mumkin hech qanday man qilingan qoida yo’q. Agar shu **Must** bo’lganda qat’iy taqiqlash ya’ni yurish mumkinmasligini bildirardi.

Modal fe’llar foydalanilgan keyingi hikoya va turli vaziyatdagi dialoglar.

Text2

I remember going to the British Museum one day to read up the treatment for some slight ailment of which I had a touch. I read all I came to read and then I began to study diseases, generally, turning the leaves idly. I came to typhoid fever, read the symptoms and discovered I must have had it for months without knowing it. Cholera I had with severe complications and diphtheria I must have been born with. I was relieved to find that Bright’s disease I had only in a modified form and, so far as that was concerned, I might live for years. The only disease I could conclude I had not got was housemaid’s knee. I sat and pondered. I thought what an interesting case I must be from a medical point of view. I was hospital in myself. All students need do would be to walk round me and after that take their diploma. I tried to feel my heart. I could not feel my heart. I think now that it must have been there all the time, and must have been beating, but cannot account for it. I had walked into that reading-room a happy, healthy man, I crawled out a decrepit wreck[2,B.20].

## DIALOGUES

### Dialogue 1. A Visit to London

A: What do you think I ought to see in London first?

B: Well, historical places, I think. You should go to Westminster Abbey, and if you can, go to the Houses of Parliament and the National Gallery.

A: And what about the British Museum? I was told one ought to see it.

B: I suppose you must go there. There you can find masterpieces of the world’s best artists.

A: How can I get to the centre?

